



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
SANOAT, RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO‘MITASI**

B U Y R U Q

23 oktabr 2024 yil.

01/03/1-138-son

**Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar
to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 05 iyundagi PQ-210-son “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”qarori yuzasidan

BUYURAMAN:

1. Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining barcha tarkibiy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 05 iyundagi PQ-210-son “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga asosan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi tizimida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma 1-ilovaga muvofiq;

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to‘g‘risidagi deklaratsiya 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qo‘mita barcha tarkibiy tuzilmalari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizomga qat‘iy rioya qilsin.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bosh mutaxassis (J.Odilov) Radiatsiya va yadro xavfsizligi Departamenti bosh mutaxassisi (O.Kasimov) bilan birgalikda Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma va Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning tasdiqlangan shakllarini Qo‘mitaning rasmiy veb-saytiga **2024 yil 25 oktyabrgacha** joylashtirish bo‘yicha chora ko‘rsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o‘z zimmamda qoldiraman.

Qo‘mita raisi



A.V.Rafiqov